

Tuyani bog'lab qo'yib tavakkul qil



09:30 / 05.01.2019 6023

Chol va uning nabirasi bir kuni baliq ovlagani bordilar. Ko'lning yaqiniga chodir tikdilar. To'r-qarmoqlarini suvga tashlab chodirga qaytdilar. Bir soatdan keyin qarmoqdan xabar oldilar. Qarasalar, to'rt-besh baliq ilingan ekan. Bolakay cholga qarab:

- Bobo, men baliqlarni to'rga ilinishini bilgandim, - dedi.
- Qayerdan bilgan eding, ayt-chi?
- Qarmoqqa baliq ilinsin, deya duo qilgan edim.

To'r-qarmoqni qaytadan tayyorladilar va tutgan baliqlarini pishirib, tanovul qilish uchun chodirga qaytdilar. Bobo va nabira qarmoqni nazorat qilish uchun suv yoniga bordilar. Qarashsa, yana baliqlar ilingan ekan.

Bolakay:

- Men yana baliqlar to'rga ilinishini bilardim, - dedi.

Chol:

- Endi qayerdan bilding?

Bolakay:

- Yana duo qilganim uchun baliqlar ilindi.

Qarmoqni suvga otib, chodir tomonga yurdilar. Yotishdan avval kelib, yana to'rga qaradilar. Ammo unga birorta baliq tushmagan edi.

Bolakay:

- Baliqlar to'rga ilinmasligini bilardim, - dedi.

Chol:

- Qayerdan bilding?

Bolakay:

- Chunki bu safar duo qilmadim, shuning uchun baliqlar ilinmadi.

Chol:

- Nega duo qilmading?

Bolakay:

- Negaki qarmoqqa xo'rak qo'yishni unutdingiz, shuning uchun duo qilmadim, baliqlar esa ilinmadi.

Bolaning oqilligini qarang, ne'matga erishish uchun duoning o'zi emas, sa'y-harakat ham zarurligini anglagan edi.

Abdurahmon ibn Abu Laylo aytadi:

Bir kishi Payg'ambar alayhissalomning oldilariga kelib: "Ey Allohning rasuli, tuyamni qo'yib yuborib tavakkul qilayinmi yoki bog'lab qo'yibmi?" - deb so'radi.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "**Uni bog'lab, keyin Allohga tavakkul qil**", - dedilar.

